

O'ZBEKISTONDA ZAMONAVIY BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Tasheva Nigina Umarovna

Bank moliya akademiyasi tinglovchisi.

Annotatsiya. *So'nggi yillarda bank sohasida bir qancha islohotlar natijasida katta o'zgarishlar yuz bermoqda. Raqamli banking va boshqa bir qancha aholiga qulay bo'lgan xizmatlar rivojlana boshladi. Pirovardida aholi bir qancha turdagi bank xizmatlaridan aynan bankka tashrif buyurmagan holda, masofadan turib foydalanishni boshlagan. Oxirgi yillardagi aynan eng ko'p isloh qilingan soha sifatida bank tizimini ko'rsatish mumkin. Ushbu maqolada zamonaviy bank xizmatlari, ularni samarali yo'lga qo'yish, bank tizimi va bank xizmatlari kelajagidagi ahamiyati hamda ularni rivojlantirish borasida fikr va mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Bank, raqamli banking, innovatsion, majburiyat, onlayn banking, xizmat ko'rsatish, bank tizimi, moliyaviy xizmat.*

Bugungi kunda insoniyat sivilizatsiyasi tinimsiz rivojlanish va o'zgarishlar jarayonida ketmoqda. Barchaga ma'lumki, bu o'zgarishlar iqtisodiyot va moliya sohasining barcha jabhalariga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Shu sababli bank tizimini rivojlantirishda banklarning texnik va texnologik rivojlanganligi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda zamonaviy innovatsion xizmatlar ko'rsatishni yo'lga qo'yish, bank majburiyatini kafolatlash orqali unga aholi omonatlarini keng jalb etish tizim oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va liberallashtirish sharoitida moliya bozorining funksiyalarini takomillashtirish, uning asosiy ishtirokchisi bo'lgan bank tizimini muqobil ishlash strategiyasini ishlab chiqish muhim vazifa sanaladi. Bunda tijorat banklarining oldiga qo'yadigan muhim vazifasi sifatida innovatsion moliyaviy xizmat turlarini mijozlarga taqdim etishi, ularning ommabopligini ta'minlashi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu vazifaning samarali amalga oshirilishini ta'minlashda bank tizimining jozibadorligini oshirish, ya'ni mijozlariga yaratilgan imtiyozlar, qulayliklar va eng asosiysi ularning ishonchini qozonish muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotning barcha bo'g'inlarida, shu o'rinda bank tizimida ham zanjirsimon ketma-ketlik uzluksiz tarzda faoliyat yuritishi lozim.

Zamonaviy hayot cheksiz imkoniyatlaru qulayliklar taqdim etishi bilan birga ulkan raqobat muhitida yashash zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Banklar uchun G'oliblar yoki mag'lublar qatorida bo'lishni ularning zamon talablariga qanchalik moslasha olish belgilab beradi. Shohsupaga chiqish yoki biznesda mustahkam o'rnini saqlab qolishning asosiy shartlaridan bu yangi tamoyillar va o'zgarishlar asosida oldinga silzish kerakligi o'z isbotini topmoqda. Jahonda sodir bo'layotgan global innovatsiyalar shu global iqtisodiyotning bir qismi bo'lgan O'zbekistonni ham chetlab o'tmay qolmaydi albatta.

2020 yil 12 mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5992-sonli "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi.

Mazkur Strategiya Markaziy bank va Moliya vazirligi tomonidan Jahon banki bilan hamkorlikda mamlakat bank tizimining joriy holatini o'rganish natijalari bo'yicha asosiy xulosalar va tavsiyalar, shuningdek xorijiy davlatlarning moliya sektorini transformatsiya qilish tajribasi hamda moliya sohasidagi xalqaro tendensiyalarni inobatga olgan holda ishlab chiqildi.

Ushbu qaror asosida bank sohasidagi islohotlarning quyidagi asosiy yo'nalishlari belgilab berildi:

bank nazorati bo'yicha qonunchilik bazasini takomillashtirish – bunda Bazel qo'mitasi standartlari, moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari va boshqalarni joriy etish ko'zda tutilgan.

banklarni o'zgartirish va xususiylashtirish, kadrlar malakasini oshirish.

xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash va kengaytirish – bunda asosiy e'tibor mijozlarga yo'naltirilgan xizmatlar, kreditlash mexanizmlari va biznes jarayonlarini avtomatlashtirishga qaratilmoqda.

Strategiya doirasida keyingi besh yillikda bank-moliya tizimini isloh qilish va rivojlantirishning to'rtta ustuvor yo'nalishlari belgilangan. Jumladan:

Bank tizimining samaradorligini oshirish banklarni iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sirini kuchaytiradi. Bunda:

- bank tizimiga zamonaviy yechimlarni joriy qilishga, moliyaviy va inson resurslari samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsata oladigan moliyaviy barqaror va nufuzli investorlarni jalb qilish;

- imtiyozli va subsidiyalashgan kreditlarni qisqartirish, kreditlashni pul-kredit siyosati signallari asosida faqat bozor shartlarida amalga oshirishga o'tish;

- kredit resurslaridan erkin foydalanish imkoniyatlarini oshirish maqsadida banklarning davlat mablag'lariga bo'lgan qaramligini pasaytirish;

- banklarning samarali infratuzilmasini yaratish, bank faoliyatida zamonaviy texnologik yechimlarni keng joriy etish nazarda tutiladi.

XX asrning 60-70 - yillari bank xizmatlari nazariyasi rivojlanishining boshlang'ich bosqichi hisoblanadi. Bu paytda X.Duglas Michigan universitetining "Kreditlash sohasidagi bank siyosati" (1971 y.), D.Revel Uels universitetining «Raqobat va bank faoliyatini boshqarish» (1978 y.), Jeneva universitetining «Jamg'arma banklarining kredit xizmatlari» (1974 y.) tadqiqotlari, Sh.Dereyning «Britaniya banklari strategiyasi va xalqaro raqobat» asari (1977 y.) xamda G.Brayanning «Bank sohasidagi raqobat» tadqiqoti (1970 y.) chop etiladi. Yuqorida qayd etilgan ilmiy ishlar bank xizmatlari bozori va uning bank xizmati segmentini o'rganishga bag'ishlangan.

"Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning barqarorligini saqlash, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish" bugungi kundagi maqsadimizdir. Bugungi kunda tijorat banklarida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish iqtisodiyotdagi keng ko'lamlı islohotlarni amalga oshirish uchun muhim iqtisodiy ahamiyatga egadir. Ayniqsa, mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish bo'yicha iqtisodiyotimiz

tarmoqlari va sohalarida olib borilayotgan islohotlar sharoitida amaldagi xizmatlar sifatini oshirish, yangiliklarni amaliyotga tadbiiq etishni faollashtirishni va bunda xorijiy banklar tajribasini keng qo'llash talab qilinadi. Iqtisodiyotda zaruriy tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirmasdan, bank mahsulot va xizmatlarni diversifikatsiyalamasdan va texnologik jihatdan yangilamasdan turib jahon moliya bozorida mustahkam o'ringa ega bo'lish mushkul. Innovatsion bank xizmatlarini amaliyotga tadbiiq yetish, kuchli raqobat mavjud bo'lgan hozirgi sharoitda, birinchi navbatda, to'g'ridan-to'g'ri yangi bank xizmatlarini va mahsulotlarini ishlab chiqishda yangicha tamoyil va mexanizmlarini amalda joriy etish dolzarb masaladir.

O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati" to'g'risidagi qonunining 3-moddasida bankka quyidagicha ta'rif berilgan:

Bank - bank hisobvaraqlarini ochish va yuritish, to'lovlarni amalga oshirish, omonatlarga (depozitlarga) pul mablag'larini jalb etish, o'z nomidan kreditlar berish bo'yicha bank faoliyati sifatida aniqlangan operatsiyalar majmuini amalga oshiruvchi tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxs.

Bank tizimi orqali bozor iqtisodiyoti sharoitida, iqtisodiyotni boshqarishning moliyaviy sohasida markaziy bo'g'in sifatida bo'ladi. Bozor iqtisodiyotida hukumron mavqega ega bo'lgan, tovar, pul muomalasini boshqarish va u orqali tushum xo'jalik faoliyatini boshqarish muammosini olg'a suradi. Shu sababli banklar, moliya - kredit jarayonlarini boshqarish markazlari sifatida faqat bozor iqtisodiyoti sharoitida o'z ahamiyatlarini to'la namayon etadilar, moliyaviy tizimni markaziy bo'g'iniga, pul muomalasini tashkil qilish, uning barqarorligini ta'minlashning bosh sifatchisiga aylanadilar.

Shuni unutmaslik kerakki, banklar shunchaki, pul saqlaydigan joy, uni tarqatadigan yoki kredit beradigan kassa emas, balki - Banklar iqtisodiyotni boshqarish va tuzilmaviy siyosatni amalga oshirishning qudratli qurolidir. Ma'lumki, bunday siyosatni moliya, kapital zaxiralarini qayta taqsimlash yo'li bilan ustivor yo'nalishlarda bo'lgan ishlab chiqarish va ijtimoiy ob'yektlar yaratiladi. Banklar endi mablag'larni hamda moliyaviy resurslarni kreditlar tarzida, ya'ni yaxshi foyda va samara beradigan markazlarga, sohalariga, mintaqalarga yo'naltiriladi.


Masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish turli bank operatsiyalarini masofadan amalga oshirish imkoniyatini beradigan xizmatlar kompleksidir. Buning uchun bank muassasasiga tashrif buyurmasdan turib kompyuter yoki mobil telefondan foydalanish kifoya. Masofaviy texnologiyalar mijozga bank xizmatlaridan foydalanishda maksimal qulaylik va bank bilan ishlash jarayonida vaqt hamda moliyaviy xarajatlarni minimallashtirish imkonini beradi. Masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishi bank xizmatlari tizimida yangi hajmdagi va yangi shakldagi turli xizmatlarni yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Masofadan xizmat ko'rsatish tizimi mijozlarga taqdim etilayotgan xizmatlarning xarakteriga ko'ra ikki turga bo'lish mumkin:

- informatsion;
- tranzaksion.

Informatsion banking mijozlarga moliyaviy ma'lumotlarni taqdim etishga yo'naltirilgan bo'lsa, tranzaksion banking moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishga imkoniyat yaratadi. Masofaviy bank xizmatlarining asosiy tamoyili mijoz va bank o'rtasida turli axborotlarning masofadan almashinuvi hisoblanadi. Bunda bank tomonidan mazkur amaliyotning xavfsizligi ta'minlanadi.

Hayotimizda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining oʻrni tobora ortib borayotgani sharoitida axborotlardan tezkor xabardor boʻlish, turli interaktiv xizmatlardan foydalanish ehtiyoji tobora ortib bormoqda. Bank xizmatlari koʻlamini kengaytirish, mijozlarga qulaylik yaratish maqsadida zamonaviy talablarga javob beruvchi interaktiv xizmat turlari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Xususan, ATB Biznesni rivojlantirish banki tomonidan olib borilayotgan keng koʻlamli ishlar ham mijozlarga turli qulayliklar yaratmoqda. Bugungi kunda banklar tomonidan “Internet banking”, “Mobile banking”, “Uyali Pul”, “SMS informer”, “Elektron reyestr” kabi interaktiv xizmat turlari joriy qilinib, fuqarolarga tez va sifatli xizmat koʻrsatib kelmoqda. “Internet banking” xizmati orqali bankning yuridik mijozlari internetdan oʻz hisob raqami harakatini nazorat qilishi va toʻlovlar oʻtkazishi mumkin boʻlsa, “Uyali Pul” interaktiv xizmati orqali fuqarolar uyida yoki istangan joyidan turib shaxsiy hisob raqamlaridagi mablagʻlaridan toʻlovlarni on-layn ravishda amalga oshirishlari mumkin.

Masofadan bank xizmatlarini koʻrsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni
(turlari boʻyicha)
2022 yil 1 yanvar holatiga
(ming)



1-rasm. www.cbu.uz saytidan olingan maʼlumot.

Yuqoridagi jadval maʼlumotlari asosida shuni koʻrish mumkinki, Oʻzbekiston Respublikasi hududida jismoniy va yuridik shaxslarning turli banklar orqali aynan masofadan turib bank xizmatlaridan foydalanish dinamikasida 2014-2022 yillar oraligʻidagi koʻrsatkichlarga qaraydigan boʻlsak, keskin oʻsish kuzatilmoqda. Ayniqsa, jismoniy shaxslarning aynan onlayn bank xizmatlaridan foydalanish miqdori ancha yuqori ekanligini sezish mumkin. Masofaviy bank xizmatlariga boʻlgan yuqori darajadagi ehtiyoj ayniqsa, fuqarolarimiz orasida COVID-19 pandemiyasi davrida ham ortib bordi. Fuqarolarning bunday zamonaviy bank xizmatlariga boʻlgan yuqori talab va ehtiyojlari birinchi navbatda bunday bank xizmatlarining fuqarolar uchun soddaligi, kam vaqt va xarajat talab qilishi, istalgan

vaqtda va istalgan joyda cheksiz foydalanish imkoniyati, byurokратиya va sansolarlikning yoʻqligi bilan baholanadi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakat iqtisodiyotining asosi hisoblangan bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish, yuqori xalqaro reyting koʻrsatkichlariga erishishning ustuvor yoʻnalishlari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalangan holda zamonaviy naqd pulsiz hisob-kitoblar mexanizmlarini joriy etish boʻyicha olib borilayotgan ishlar banklarimiz tomonidan mijozlarga koʻrsatilayotgan xizmatlar sifati, toʻlov intizomi va madaniyatini yangi bosqichga koʻtarilishini taʼminlash bilan birga, barcha iqtisodiy tarmoqlar taraqqiyotini mustahkamlashga ham oʻzining ijobiy taʼsirini koʻrsatadi. Shunday zamonaviy texnologiyalar asosida masofaviy bank xizmatlari, xususan Internetbanking xizmatining faol joriy etilishi eng muhim masala ekanligi shubhasiz. Jumladan, mamlakatning qay darajada iqtisodiy va texnologik taraqqiy topganligi masofaviy bank xizmat turlarini amaliyotga joriy qilishda muhim hisoblanadi. Xususan, bank operatsion xarajatlarining barqaror darajasiga erishish uchun tijorat banklarida ham masofaviy bank xizmat turlarini koʻpaytirish va ularning samaradorligini oshirish muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining yillik xisobotlari.
2. У.Ўроқов. Давлат харидлари тизимида электрон харидлар ҳажмини ошириш масалалари. 2021
3. Sherali Sultonov Nuraliyevich, Nodira Soatova Bobokhanovna. Ways of Fund Market Development in Uzbekistan. Eurasian Scientific Herald.2022
4. Sherali Sultonov. Directions of state regulation of the stock market. International Journal of Economic Growth and Environmental. 2021
5. U Oʻroqov, Zulayho Abdujobir qizi Tursunova. Oʻzbekistonda davlat tashqi qarzini samarali boshqarishda davlat qarziga xizmat koʻrsatish kafolat jamgʻarmasining oʻrni. Science and Education, 2022
6. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари. Science and Education, 2022
7. Shodmonov I.S.” Bankning kredit siyosatini takomillashtirish”. "Экономика и оциум" №10(89) 2021. 268-b.
8. www.Bank.uz
9. Brett King “Bank 4.0 Doimo siz bilan – hozir va shu yerda”. Ilm –Ziyo – Zakovat MCHJ, 2023.